

ABDULLA QAHHOR IJODIYOTIDA DIALEKTIZMLARNING O'RNI

Ramazonova Shahnoza Bozorovna

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Institutining o'zbek tili va adabiyoti
1-kurs magistranti ramazonovashahnoza611@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola, o'zbek adabiy tilining paydo bo'lishi, adabiy til me'yorlari hamda uning boyishida dialektizmlarning ahamiyati haqida yozildi.*

Kalit so'zlar: *dialekt, adabiy, Abdulla Qahhor, fors, turk, sheva, og'zaki, topilma*

KIRISH

Adabiy til - muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (masalan qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqalar adabiy til bo'lgan. Adabiy tilning ikki -og'zaki hamda yozma ko'rinishi mavjud.

METODOLOGIYA

Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma adabiy til va og'zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan Adabiy tilni ayni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham adabiy til me'yorlariga bo'ysunsada, ko'plab xususiylik hamda umume'tirof etmagan Dialektizmlar — adabiy tildagi dialektlarning o'ziga xos hududiy unsurlari. Dialektizmlar tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar)ga taalluqli. Badiiy ijodda dialektizmlarlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg'u berish maqsadida qo'llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo'llash tufayli dialektizmlarlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. Dialektizmlarlarni qo'llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsistik uslubda qisman qo'llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba'zi so'zlar adabiy til va dialektda qo'llangani holda boshqa dialektda boshqa ma'noni ifodalaydi. Masalan, „shoti“, „tovoq“ Farg'ona til shevalarida „narvon“, „lagan“ni bildirsa, adabiy tilda „arava shotisi“ „kosaga o'xshash idish“ni anglatadi. Xorazm shevasiga xos „g'o'ch“ so'zi —

„mard“, „botir“; „nishatamiz“ — „nima qilamiz“ degan ma’noni bildiradi. Dialektizmlarlardan o’rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta’sirchanligini oshiradi davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo’lmagan. Adabiy til bilan milliy til o’rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo’lgan xalq millat bo’lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o’taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o’rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi.

Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo’lsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko’pgina mamlakatlar (masalan Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar Adabiy til bilan teng sur’atda qo’llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog’lanadi. Ammo bu bog’lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o’zi adabiy til ko’rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo’ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma’lum shaklda birikishi va vazifasining o’ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi. O’zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o’zbek Adabiy til rivojini ta’minlovchi muhim voqea bo’ldi. O’zbek Adabiy tili turli xalqlar Adabiy tili rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda. O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 33 yil to’ldi. O’tgan davr ichida o’zbek adabiy tilini shakllantirish, uning maqomini yanada oshirish yo’lida xayrli va e’tiborga molik ishlar qilindi. Davlatimizning rasmiy hujjatlari ona tilida rasmiylashtiriladigan bo’ldi. O’zbek tili ilmiy til sifatida ilm-fanning deyarli barcha tarmoqlarida foydalaniladigan, ilmiy tadqiqotlar shu tilda bajariladigan va himoya qilinadigan darajaga ko’tarildi. O’zbek tili shakllanishi haqida gap ketganda XX asr boshlarida tilimiz taraqqiyotida o’ziga xos o’rin tutgan yozuvchi Abdulla Qahhor ilmiy faoliyati haqida to’xtalib o’tish o’rinli.

TADQIQOT VA MUHOKAMALAR

Abdulla Qahhor o’zbek tilshunosligida muhim o’rin tutgan xizmatlaridan biri uning til taraqqiyoti haqidagi qarashlaridir. Dialektizm umumtil lug’at boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi leksemalardan ham adabiy tilga saylab kiritiladi. Dialektizmlarning umumtil boyligiga aylanishi ma’lum shart-sharoitga bog’liq.

Masalan, shu dialektizm anglatgan ma’no uchun adabiy tilda boshqa nom bo’lmasligi kerak; agar adabiy tilda shunday ma’noni anglatuvchi leksema bo’lsa, yangi qabul qilinayotgan leksema leksik ma’no qirrasida, baho semasida, nutq ko’rinishlariga xoslanish belgisida va boshqa jihatlarida ayrimlikka ega bo’lishi lozim. Biror dialektizmning adabiy tilga ko’chishini boshqa bir hodisadan – dialektizmning badiiy asarda ishlatilishidan farqlash kerak. Badiiy asarda ishlatilgan har bir leksema adabiy tilga qabul qilingan deb qaralmaydi. Badiiy asar voqelikni qanday bo’lsa – shunday aks ettirishi sababli unda til hodisalari ham o’z tabiiy holatida namoyon bo’ladi. Agar dialektizm biror muallif asarida-gina uchrab

qolmay, barcha ishlatadigan lug'aviy birlikka aylansa, umumlashib ketsa, shunda bunday birlik adabiy tilga kirib boradi. Aks holda, badiiy asarda ishlatilganidan qat'i nazar, dialektizmligicha qolaveradi.

Masalan, Abdulla Qahhor o'z povestini ("Sinchalak") dialektizm bilan atadi, bu leksemani povest matnida ham ishlatdi. Lekin shu bilan sinchalak-leksemasi adabiy til lug'atiga o'tdi deb bo'lmaydi, albatta (Adabiy tilda shu ma'no chittak- leksemasi bilan anglatiladi). Demak, yozuvchi dialektizmni badiiy asar matniga kiritadi, bunday leksemaning adabiy til lug'aviy birligiga aylanishi esa til amaliyotiga bog'liq. Tilning biror mahalliy ko'rinishida ishlatiladigan barcha leksemalar shu dialektniki deb qaraladi, lekin dialektizm deb shulardan bir qismi-gina ajratiladi. Bunda adabiy til bilan dialekt uchun mushtarak leksemalar hisobdan chiqariladi. Dialektidagi leksema adabiy tildagi leksemadan ko'pincha tovush jihati bilan farqlanib turadi: ayni bir leksema adabiy tilda va turli dialektlarda har xil talaffuz qilanadi.

Masalan, kangul- - ko'ngul- - ko'ngil-, oka- - aka-,
jur- - yur-, gal- - kel-, bala- - bola, turpoq- - tuproq- kabi.

Bular - tilning mahalliy ko'rinishlariga xos bir necha leksema emas, balki umumtilda bor bir leksemaning turlicha talaffuzi; shunga ko'ra bunday farqlanishlar leksik dialektizm deyilmaydi. Dialektizm deb belgilanuvchi birlik adabiy tilda (shuningdek boshqa dialektlarda ham) umuman yo'q bo'lishi yoki o'z leksik ma'nosida, leksik ma'nosining tarmoqlanishida, baho semasida va boshqa jihatlarida farqlanib turishi kerak.

Leksik dialektizm ikki turli bo'ladi: a) dialektizm-leksema, b) dialektizmsemema. Faqat shu dialektidagina ishlatilsa-yu, adabiy tilda yo'q bo'lsa, dialektizm-leksema deyiladi. Bunday leksema lug'aviy birlik sifatida adabiy til uchun bus-butun yangi, noma'lum bo'ladi. Masalan, xamak-, sapcha-, balacha-, tugunak- (tuynak-) leksemalaridan har biri boshqa-boshqa dialektniki, bulardan birortasi ham adabiy tilga qabul qilinmagan. Hozirgacha har bir territoriyada shu predmet o'z leksemasi bilan anglatiladi. Xuddi shuningdek holat narvon-, shoti-, zangi- leksemalariga ham xos. Lekin bu misoldagi birinchi leksema, har holda, adabiy tilga olingan deb qaraladi (Markaz joylashgan dialektning leksemasi ekanligi bilan izohlansa kerak). Demak, dialektlardan biriniki bo'lgan leksema adabiy tilga xos leksemaga aylanadi, qolganlari dealektizmligicha turadi.

Dialektga xos leksema adabiy tilga ba'zan yakka o'zi emas, balki turg'un birikma tarkibida kirib kelishi mumkin. Masalan, shiypon- leksemasi adabiy tilga dala shiyponi-turg'un birikmasi tarkibida o'tdi. Ba'zi hollarda biror dialektidagi leksema boshqa dialektidagi leksema bilan yoki adabiy tildagi leksema bilan ifoda jihatiga ko'ra bir xil bo'ladi-yu, mazmun jihatiga ko'ra farqlanib turadi. Buni dialektizm-semema deyiladi. Masalan, pashsha- - chivin-, chivin- - pashsha-, lagan- - tovoq-, tovoq- - lagan- leksemalarida bo'lgani kabi. Bu yerda ayni bir leksik ma'no har xil dialektda boshqa-boshqa leksemaning lug'aviy mundarijasini tashkil qiladi: ruscha muxa bir dialektda pashsha- deyilsa, boshqa bir dialektda chivin- deyiladi; aksincha, ruscha komar avvalgi

dialektda chivin- deyilsa, keyingi dialektda pashsha- deyiladi va b. Bu yerda leksemalar go'yo o'rin almashib qolgandek bo'ladi. Dialektlarga ko'ra ba'zan leksemalarning ma'no hajmida ham farq mavjud bo'ladi. Buni dialektizm-sememaning bir ko'rinishi deb baholash kerak. Masalan, ba'zi dialektlarda meva turlaridan birining ho'li ham, qurug'i ham o'rik- deb nomlanaveradi, boshqa bir dialektda esa o'rik- deb faqat ho'l mevaga aytiladi, qurug'i esa turshak- deyiladi. Demak, o'rik- leksemasining ma'no hajmi bir dialektda keng, boshqa dialektda esa tor bo'lib chiqadi. Ishlatilish doirasi kasb-korga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklar professionalizm deyiladi (lot. professio - kasb-kor, mutaxassislik). Dialektizm ma'lum joyda yashovchilar uchungina tushunarli bo'lsa, professionalizm ma'lum kasb-kor egalari doirasida ishlatilib, shularga tushunarli bo'ladi. O'z dialektining ta'siri bilan izohlanadigan ba'zi ayrimliklarni hisobga olmaganda, shu kasb egasi qaysi territoriyada yashashidan qat'i nazar, professionalizm ular uchun odatda umumiy bo'ladi.

Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-korda shu sohaning terminlari tashkil qiladi. Masalan, ipakchilik terminlari kabi. Professionalizm turli fan-texnika, maktab-ma'orif sohalarida, ma'muriy-xo'jalik ishlarida va boshqa sohalarda ham mavjud. Dialektizm bo'lganidek, professionalizmlik ham nisbiy tushuncha. Bunday birlik o'z sohasidan chiqib, ishlatish doirasidagi chegaralanish yo'qolib, umumtil mulkiga aylansa, professionalizmlik muhrini yo'qotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Muxtorov,U.Sanaqulov "O'zbek adabiy tili tarixi".Toshkent-1995
2. U.Tursunov,B.O'rinboyev "O'zbek adabiy tili tarixi".Toshkent-1982
3. A.Aliyev,Q.Sadiqov"O'zbrk adabiy til tarixidan".Toshkent-1994
4. A.Yu.Aliyev "O'zbek dialektologiyasidan materiallar".Toshkent-1974
5. N.Rajabov"O'zbek shevashunosligi"Toshkent-1996
6. G'.O.Yunusov"O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba"Toshkent-1936
7. www.google.uz